AKBA KONI APOKARBANATLI YOTQIZIQLARDA OLTIN MINERALLASHUVINING GEOLOGIK-STRUKRURAVIY NAZORATI

Boboqulova Zebo Bahodir qizi
Magistr
Qarshi Davlat Texnika Universiteti

Anotatsiya. *Mazkur tezisda Akba koni hududining geologik tuzilishi va oltin minerallashuviga ta'sir etuvchi tektonik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rudali tanalarning joylashishi hududdagi buzilish zonalari va apokarbonatli o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq.*

Asosiy qism.

Hududning geologik kesmalarini o'rganish jarayonida rudalashuvning asosiy struktura nazorat qiluvchi omillari aniqlandi. Apokarbonatli yotqiziqlardagi metamorfik o'zgarishlar oltin to'planishi uchun qulay geokimyoviy muhit yaratgan. Mineralogik tahlillar ruda tarkibida pirit va arsenopiritning ustunlik qilishini, ularning genetik jihatdan ruda hosil qiluvchi bosqichlar bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

Karlin ma'danlarining kelib chiqishi ko'p sonli munozaralarning predmeti hisoblanadi. Ularni hosil bo'lishining bir-birini inkor qiladigan bir qancha gipotezalari taklif qilingan. Hozirgi vaqtda Karlin-tipidagi konlar hosil bo'lishining asosiy konsepsiyalarini 3 ta guruhga ajratish mumkin.

1. Plutonogen-gidrotermal. Ma'danlashuv magmatogen, kichik chuqur (1-3 km) tabiatga ega. Oltinning manbayi katta bo'lmagan chuqurlikda yotgan qobiq va qobiq-mantiya tabiatli, bazitli magmalarning differensiatsiyalarini o'z ichiga olgan granitli magma o'chog'i hisoblanadi. Cho'kindi jinslarning roli oltinning manbayi bo'lishi mumkinligi sifatida bo'ysunuvchan.

2. Birlamchi cho'kindi yoki vulqon-cho'kindi genezis. Ma'danlashuv yer yuzasiga yaqin vulqon-gidrotermal genezisga ega va shunga o'xshash, zamonaviy geotermal manbalar rayonlarida hosil bo'ladi. Bu bilan ma'danlarda Hg, Sb, As ning yuqori miqdori tushuntiriladi, hamda ular uchun xarakterli bo'lgan metasomatitlar – argillizitlar va kremniylashish

3. Ma'danlashuv teletermal, amagmatik hisoblanadi va stratiform (gidrogen) turga kiradi. Oltin va yo'ldosh elementlarning birlamchi manbayi ma'dan joylashgan cho'kindi va vulqon-cho'kindi qalinliklar hisoblanadi



1.1-rasm. Akba maydonining kosmik surati.

Ma’danli maydonning chegaralarida ahamiyatli miqyoslarda karbonat jinslar bo‘ylab argillizitlashish, kalsitlashish va gematitlashish jarayonlari yuzaga kelgan. Oltinli ma’danlashuv juda yuqori probali (o‘rtacha probasi 998) erkin ko‘rinarli oltinning mavjudligi va sezilarli simobliyligi (ayrim namunalarda 10,7% gacha) bilan xarakterlanadi. Oltinning kuzatiladigan zarralarining o‘lchami 0,01 dan 1,5-2 mm gacha o‘zgaradi.

Oltin-argillizitli ma’danlashuv uchun surma-simobli va margimushli (realgar va auripigment shaklida) minerallashish bilan fazoviy qo‘shilib ketish xarakterli; ma’danlarda xarakterli kvars-tomirli hosilalarning mavjud emasligi; tabiiy ko‘rinarli oltinning dikkit bilan birlashmasi va ma’danlarda sulfidli minerallashishni deyarli to‘liq ishtirok etmasligi (miqdori bo‘yicha 0,3% dan ko‘p emas).

O‘zbekistonda karbonat jinslardagi oltin ma’danlashuvi, qoidaga muvofiq, alyumosilikatli muhitda mahalliylashgan ma’danlashuvni o‘rganishga yo‘naltirilgan geologik-qidiruv ishlarini olib borish jarayonida yo‘l-yo‘lakay tadqiqot qilingan. Bunday o‘rganishlar umumlashtirilib turli mintaqalar bo‘yicha (Sharqiy O‘zbekistonning Olmaliq va Angren ma’danli rayonlari; Markaziy Qizilqumda asosiy ma’danli maydon; Nurota va Zirabuloq tog‘lari; Janubiy O‘zbekistonda alohida maydonlar) ma’lumotlar tizimlashtirilgan. Bunda karbonat jinslar vulqon svitalarining tarkibida (Chotqol-Qurama mintaqasi) yoki terrigen hosilalar orasida uchragan vaziyatlar ko‘rib chiqilgan. Markaziy Qizilqum, Janubiy Nurota, Janubiy O‘zbekistonda, Zirabuloq-Ziaetdin tog‘larida oltin ma’danlashuvining tarqalish qonuniyatlari tahlil qilish natijasida oltin va yo‘ldosh minerallashuv to‘planishi uchun karbonat jinslarning muhim ahamiyati aniqlangan.

Xulosa:

Akba koni misolida olingan ma’lumotlar, hududning oltinlilik salohiyatini baholashda yangi geologik mezonlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Oltin minerallashuvining strukturali joylashishini tushunish, kelgusida qidiruv-razvedka ishlarining samaradorligini oshirish uchun asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Очилов И.С. Чакилкалян мегоблокининг Карлин типидаги апокарбонатли олтин минераллашуви // «Рақамли технологиялар, инновацион ғоялар ва уларни ишлаб чиқариш соҳасида қўллаш Истиқболлари» мавзусида Халқаро илмий-амалий конференция Ўзбекистон Андижон-2021-31-34 б.
2. Очилов И.С., Эшмуродов О.Р. Аката майдонининг карлин типидаги апокарбонатли олтин минераллашуви // «Рақамли технологиялар, инновацион ғоялар ва уларни ишлаб чиқариш соҳасида қўллаш Истиқболлари» мавзусида Халқаро илмий-амалий конференция Ўзбекистон Андижон-2021-50-53 б.
3. Очилов И.С., Ярбобоев Т.Н. Условия размещения апокарбонатной золоторудной минерализации Чакылкалянских гор (Южный Узбекистан). German International Journal of Modern Science (Deutsche internationale Zeitschrift für zeitgenössische Wissenschaft). // Германия, 2021. - №20. VOL. 1. P. 10-14.
4. Очилов И.С. Чакилкалян тоғларининг геологик тузилишини ўзига хос хусусиятлари // Инновацион технологиялар Ўзбекистон.- Қарши 2022. - №3. - 16-21 б.
5. Очилов И.С. Чакилкалян тоғлари апокарбонат олтин маъданлашувининг геологик тузилиши ва жойлашиш шароитлари // Геология-минералогия фанлари фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган автореферат. Тошкент, 2023. 4-18 б.
6. Султонов Ш.А. Петрохимические и геохимические особенности дайковых серии северной части Чакылкалянского мегаблока (Южный Узбекистан) // Течника. Москва.2020. №3 С. 24-33
7.Ochilov.I.S., Mavlonova D.N.,Boboqulova Z.B. Apokarbanat oltin ma’danlarining geologik tuzilishi // Ekonomika i sotsium №1(128)-2 2025. O‘zbekistan -Tashkent 379-384 б
8. I.S.Ochilov., Usmonov.Q.M., Mavlonova D.N.,Boboqulova Z.B. Karlin tipidagi apokarbonat oltin ma’danlarining hosil bo‘lish sharoitlari // Sanoatda raqamli texnologiyalar.2025 yil 2-son. O‘zbekistan – Qarshi. 1-4 b
9. I.S.Ochilov.,Axmedov.SH.SH., Arabov.S.Z..,Boboqulova Z.B. Chaqilkalon-qoratepa tog‘laridagi yaxton ma’danli maydonining ma’dan magmatik tizimlari // Sanoatda raqamli texnologiyalar.2025 yil 4-son. O‘zbekistan – Qarshi. 1-5 b